Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli tranformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуритдинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	



HUDUDLARDA TURIZM MAHALLALARNING TURISTIK SALOHIYATINI OSHIRISH USULLARI (BOG'IBALAND TURIZM MAHALLASI MISOLIDA)

Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich

Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

jasur.rakhmanov@mail.ru

[ORCID: 0009-0006-1334-4752](https://orcid.org/0009-0006-1334-4752)

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning turizm mahallalarining turistik salohiyatini oshirish usullari Samarqand shahridagi Bog'ibaland turizm mahallasida raqamli iqtisodiyotning roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot orqali sayohatlarni rejalashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishish tadqiqotning dolzarbligi hisoblanadi. O'zbekistonda turizm mahallalari va qishloqlarini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni yetarlicha o'rganilmagan. Bog'ibaland turizm mahallasiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko'paytirishda raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot yakunida Bog'ibaland turizm mahallasida raqamli iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqish, uni amalda qo'llash hamda mazkur tajriba va amaliy tavsiyalarni O'zbekistonning barcha turizm mahalla va qishloqlarida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Bog'ibaland turizm mahallasi, sayyoh, raqamli iqtisodiyot va marketing, turizm mahallasi, turizm qishlog'i.

Abstract: This article scientifically analyzes the role of the digital economy in increasing the tourism potential of tourism neighborhoods in Uzbekistan, with a focus on the Bog'ibaland tourism neighborhood in Samarkand. The relevance of the study lies in exploring how digital technologies and the digital economy can enhance travel planning, improve the quality of services, and achieve economic efficiency. The role of the digital economy in the development of tourism neighborhoods and villages in Uzbekistan has not been sufficiently studied. Utilizing digital economy tools to increase the flow of tourists to the Bog'ibaland tourism neighborhood is considered highly relevant. The findings of the research highlight the importance of developing a digital economy strategy for Bog'ibaland, implementing it in practice, and applying the resulting experiences and practical recommendations to other tourism neighborhoods and villages throughout Uzbekistan.

Key words: Bog'ibaland tourism neighborhood, tourist, digital economy and marketing, tourism neighborhood, tourism village.

Аннотация: В данной статье научно анализируется роль цифровой экономики в повышении туристического потенциала туристических махаллей Узбекистана на примере туристической махалли Богибаланд в городе Самарканд. Актуальность исследования заключается в изучении того, как цифровые технологии и цифровая экономика могут способствовать планированию путешествий, улучшению качества обслуживания и достижению экономической эффективности. Роль цифровой экономики в развитии туристических махаллей и сельских территорий Узбекистана до сих пор недостаточно изучена. Применение инструментов цифровой экономики для увеличения потока туристов в туристическую махаллю Богибаланд является особенно актуальным. Результаты исследования подчеркивают важность разработки стратегии цифровой экономики для махалли Богибаланд, её практической реализации, а также применения полученного опыта и практических рекомендаций в других туристических махаллях и селах Узбекистана.

Ключевые слова: туристическая махалля Богибаланд, турист, цифровая экономика и маркетинг, туристическая махалля, туристическое село.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son'li qarori bilan Fuqarolar yig'inlariga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomini berish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlangan. Nizomda fuqarolar yig'ini turizm mahallasi maqomini olish uchun, fuqarolar yig'ini hududida kamida 20 ta oilaviy mehmon uylarining mavjudligi, mahallada kamida 5 ta sifatli turistik xizmatlarni taqdim etish, mahalliy ishlab chiqarilayotgan esdalik sovg'alari mahsulotlarini sotish shoxobchalarini tashkil etish, turizmning ekologik, agroturizm, etnografik, madaniy va tarixiy turlaridan birini tashkillashtirish, shuningdek zarur infratuzilmaning mavjudligi inobatga olinadi. "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari hududlarida mehmon uylari, ovqatlanish va ko'ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari tatbiq etiladi.

Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallasiga 2023-yilning sentyabr oyida Respublikada birinchi "Turizm mahallasi" maqomi berilgan. Bog'ibaland Amir Temur tomonidan barpo etilgan va bugunga qadar saqlanib qolgan yagona bog' hisoblanadi. Mahalla hududida 40 gektardan iborat anjirzor mavjud. Mahalla hududida madaniy meros obyektlari, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik markazlari, suvenir do'konlari, ovqatlanish shoxobchalari, novvoyxona hamda bog' hududida 15 tadan ortiq dam olish maskanlari tashkil etilgan.

Amir Temur davrida Samarqand shahrida yirik me'moriy va bog'sozlik loyihalari amalga oshirilgan. Shulardan biri – shimolda joylashgan Bog'i Baland bo'lib, u Amir Temur tomonidan nabirasi Mironshohning qiziga bag'ishlab qurdirilgan. Bog' Cho'ponota maqbarasi yaqinida joylashgan bo'lib, uning barpo etilishida Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlardan kelgan bog'bonlar hamda me'morlar faol ishtirok etgan. Bog'ning markazida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bor edi. Qasr atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmozorlar bog'ga o'ziga xos go'zallik va tarovat baxsh etgan. Tarixiy manbalarda bu bog' nafaqat san'at va madaniyat, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega makon sifatida ta'riflangan. Shuningdek, bog' hududiga 2023-yil davomida 8 ming nafar, 2024-yilda esa 12 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan. Bugungi kunda Bog'i Baland nafaqat tarixiy obida sifatida o'rganilmoqda, balki Samarqandning madaniy merosi va turizm rivojida muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning drayveriga aylanib ulgurdi. Raqamli iqtisodiyot xizmat ko'rsatish, ta'lim, sanoat va turizm sohaslarining yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Raqamli texnologiya va raqamli iqtisodiyotning turizm sohasida qo'llanilishi turistlarga qulaylik yaratish, infratuzilmani yaxshilash, servis darajasini oshirish hamda xorijiy va mahalliy sayyohlar sonining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son² Farmoni qabul qilingan. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi elektron hukumat, onlayn xizmatlar, raqamli to'lov tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarda raqamli texnologiyalar yordamida turistik xizmatlar keng joriy etilgan. Shu bois, mazkur davlatlarga har yili millionlab sayyohlar tashrif buyurmoqda. Rivojlangan davlatlarning ushbu sohadagi ijobiy tajribalarini mamlakatimizda ham joriy qilishimiz zarur. Ayniqsa, Janubiy Koreya qishloq turizmini raqamlashtirish borasida dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Koreyada 2019-yilda "Digital Culture Experience" (Raqamli madaniyat tajribasi) loyihasi ishga tushirilgan. Loyihani amalga oshirishdan asosiy maqsad – qishloq hududlaridagi madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish hamda sayyohlarga onlayn va oflayn rejimlarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir. Masalan, Gyeongju Bulguksa qishlog'ida joylashgan tarixiy ibodatxona hududida raqamli gid tizimi joriy etilib, sayyohlar smartfonlar orqali obyekt haqida batafsil ma'lumot olishlari mumkin.

Koreyadagi "Rural Tourism Integrated Platform" platformasi qishloq turizmi xizmatlarini bir joyda jamlagan onlayn xizmat bo'lib, sayyohlar mehmonxonalar va turar joylarni bron qilish, mahalliy tadbirlar va festivallar haqida ma'lumot olish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini onlayn xarid qilish imkoniyatiga ega.

1 <https://lex.uz/docs/-4930291>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Ushbu dasturlar Janubiy Koreyada qishloq turizmini rivojlantirish, ushbu hududlarda sayyohlarga yaratilgan imkoniyatlarni kengaytirish va servis darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu hududlarga xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimining o'sishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston ham xorijiy muvaffaqiyatli loyihalar va tajribalarni o'rganib, turizm industriyasini modernizatsiya qilishga kirishgan. Bog'ibaland turizm mahallasi misolida raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sayyohlik salohiyatini yanada oshirish masalasi mazkur tadqiqot mavzusining asosiy e'tibor markazida turadi hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi butun dunyoda keng tadqiq etilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Xorijiy va O'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari raqamli texnologiyalarni turizmga integratsiya qilish, turistik xizmatlarning innovatsion rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlik masalalarini o'rganishga qaratilgan.

A.A. Fedulin, A.V. Dzhaparova va A.S. Fedulina o'zlarining "Digital Economy in Tourism Industry" nomli ilmiy maqolasida axborot texnologiyalarining turizm sohasiga ta'sirini sanab o'tgan, shuningdek, joylashtirish vositalari va turistik tashkilotlarning servis sohasi sifatini oshirishdagi rolini ko'rsatib o'tgan [7].

"Is the Digital Economy Empowering High-Quality Tourism Development?" nomli tadqiqotda esa raqamli texnologiyalarning turizm tashkilotlari uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqotchilar innovatsion marketing strategiyalarining xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilishdagi o'rnini ham alohida ta'kidlagan [8].

O'zbekistonlik olim M.M. Murodov o'zining "The Importance of the Development of the Digital Economy in the Field of Tourism in Uzbekistan" nomli maqolasida O'zbekiston turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini o'rgangan. Uning tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi, subyekti esa mamlakatdagi sayyohlik infratuzilmasining raqamlashtirilish jarayonlari tashkil etadi [9].

Bundan tashqari, A.A. Abduraimov "Digital Tourism and its Importance in the Economy of Uzbekistan" nomli tadqiqotida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning turizm sohasiga ta'sirini tahlil qilgan. Muallifning tadqiqot obyekti O'zbekiston iqtisodiyoti, subyekti esa turistik xizmatlarning raqamlashtirilish jarayonlari tashkil etadi.

Xorijiy va O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi roli global va mahalliy miqyosda ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar Bog'ibaland turizm mahallasining sayyohlik salohiyatini oshirishda raqamli iqtisodiyotning o'rnini tahlil qilish uchun nazariy hamda amaliy manba sifatida xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Bog'ibaland turizm mahallasining sayyohlik salohiyatini oshirishda raqamli iqtisodiyotning o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yondashuv va uslublarni o'z ichiga oladi.

Nazariy-tahliliy usul. Tadqiqot doirasida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlanmalar, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari o'rganildi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni hamda xalqaro tajribadan Janubiy Koreyaning raqamli turizmga oid strategiyalari tahlil qilindi.

Statistik tahlil usuli. Tadqiqot doirasida O'zbekiston turizm sohasining raqamli infratuzilmasi va elektron xizmatlari bo'yicha ma'lumotlar o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hamda Jahon sayyohlik tashkiloti (UN Turizm) ma'lumotlari asosida sayyohlar oqimi, elektron vizalar ulushi, raqamli to'lovlardan foydalanish ko'rsatkichi va turizm sohasida IT xizmatlarining kengayish dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot usuli. Bog'ibaland turizm mahallasida turizm subyektlari (tadbirkorlik subyektlari vakillari, restoranlar, gidlar, mahalliy tadbirkorlar) bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi va ehtiyojlari o'rganildi. Shuningdek, sayyohlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, ularning onlayn xizmatlarga talabi va xulq-atvor omillari tahlil qilindi.

Taqqoslash va benchmarking usuli. Janubiy Koreya turizm obyektlari bilan taqqoslash olib borildi. Xorijiy turizm maskanlari Bog'ibaland turizm mahallasi bilan taqqoslanib, qanday raqamli texnologiyalarni joriy etish mumkinligi bo'yicha xulosalar chiqarildi.

Ushbu tadqiqot metodlari yordamida Bog'ibaland turizm mahallasining raqamli iqtisodiyotga asoslangan rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilib, ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ilgari surildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot Bog'ibaland turizm mahallasining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar turistik xizmatlarning samaradorligini oshirib, sayyohlar oqimini ko'paytirishga yordam beradi. Shu bois, Bog'ibaland mahallasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali turizm sohasida katta o'zgarishlarga erishish mumkin. Janubiy Koreya tajribasi asosida raqamli turizm modelini joriy etish ahamiyatli hisoblanadi. Janubiy Koreyaning Jeonju Hanok Village hududida sayyohlar uchun mobil ilovalar va virtual turlar tashkil etilgani natijasida ushbu qishloqqa sayyohlar soni 35 foizga oshgani qayd etilgan [10].

Bog'ibaland turizm mahallasida hozirda turistlar oqimini oshirish uchun raqamli marketing va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot mahalliy tadbirkorlarning savdo hajmini oshirish hamda yangi bozorlarni zabt etishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Xitoyning Huangshan an'anaviy turizm hududida mahalliy tadbirkorlar e-commerce platformalaridan foydalangan holda savdolarini 50 foizga oshirishga muvaffaq bo'lgan [11]. Bog'ibaland uchun ham elektron tijorat platformalarini joriy qilish mahalliy hunarmandlar va tadbirkorlarning daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Smart texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Janubiy Koreyaning Bukchon Hanok Village hududida sayyohlik axborot markazlarida sun'iy intellekt asosidagi interaktiv gidlar va mobil ilovalar joriy qilingan bo'lib, bu turistlarning hudud bo'ylab harakatlanishini osonlashtirgan va ularning xarajatlarini 20 foizga oshirishga xizmat qilgan [12]. Bog'ibalandda ham shunga o'xshash raqamli gidlar, QR kodli informatsion stendlar va mobil ilovalar orqali sayyohlarga xizmatlar ko'rsatish mumkin.

Mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyati ham mavjud. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilmani rivojlantirish xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Janubiy Koreyaning Gyeongju turizm hududi sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari orqali investitsiyalarni 50 foizga oshirishga muvaffaq bo'lgan [13]. Bog'ibalandda raqamli turizm platformalarining joriy etilishi sayyohlik loyihalariga xalqaro sarmoyadorlarni jalb qilish uchun muhim omil bo'lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanish Bog'ibaland turizm mahallasini sezilarli darajada rivojlantirishga imkon yaratadi. Turistlar sonining oshishi, mahalliy tadbirkorlikning rivojlanishi, smart texnologiyalarni joriy qilish, investitsiyalarni jalb qilish va ekoturizmni rivojlantirish kabi omillar mahallaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Janubiy Koreyaning "Smart Tourism Village" dasturi orqali raqamli texnologiyalar qishloq turizmini rivojlantirishga qanday ta'sir qilishi mumkinligi yaqqol ko'rinadi. Xususan, sun'iy intellekt (AI) va IT texnologiyalarining qo'llanilishi sayyohlarning hatti-harakatlarini tahlil qilishga, shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishga va turizm infratuzilmasini samarali boshqarishga imkon yaratgan. VR va AR texnologiyalari orqali tarixiy joylarni virtual ko'rish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu masofaviy turizmni rivojlantirishga xizmat qilgan. Onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlari orqali sayyohlarga qulaylik yaratilgan, mahalliy tadbirkorlar esa o'z xizmatlarini global miqyosda taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Bog'ibaland turizm mahallasi uchun ham Janubiy Koreya tajribasi asosida AI va IT texnologiyalarini joriy etish, sayyohlar uchun VR va AR xizmatlarini taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Bog'ibalandni xalqaro miqyosda tanitishga yordam beradi.

Onlayn bronlash tizimlari sayyohlarga mehmonxonalar va restoranlarni oldindan bron qilish hamda turistik paketlarni tanlash imkonini yaratadi. Virtual sayohat qilish esa sayyohlarga safar qilishdan oldin joy haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va xorijiy tajribalar asosida Bog'ibaland turizm mahallasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

onlayn bronlash va to'lov tizimlarini yo'lga qo'yish – sayyohlarning qulayligini oshirish va tadbirkorlarning raqamli bozordagi ishtirokini kengaytirish;

VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalarini rivojlantirish – tarixiy va madaniy joylarni virtual ekskursiyalar orqali targ'ib qilish;

dronlar va interaktiv xaritalarni joriy qilish – sayyohlarga mahalla haqida batafsil va interaktiv ma'lumotlar taqdim etish.

Bu chora-tadbirlarning joriy qilinishi Bog'ibaland turizm mahallasining raqamli iqtisodiyot orqali jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bog'ibaland turizm mahallasini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish sayyohlar oqimini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-



quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalarni turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish natijasida qishloq turizmida sezilarli yutuqlarga erishilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, Bog'ibaland turizm mahallasida quyidagi yo'nalishlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etish maqsadga muvofiq:

onlayn bronlash tizimlarini joriy etish – bu mehmonxona va turistik xizmatlarni ilgari surish imkonini yaratadi; raqamli marketing va sun'iy intellektga asoslangan tavsiyalar tizimi – sayyohlarga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi;

VR va AR texnologiyalaridan foydalanish – masalan, virtual sayohatlar orqali Bog'ibalandning tarixiy joylarini tanishtirish, bu xalqaro sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni turizmning boshqa yo'nalishlariga qo'llash, ularning iqtisodiy samaradorligini chuqurroq tahlil qilish va Bog'ibaland tajribasini O'zbekistonning boshqa turistik zonalarida tatbiq etish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". – [Elektron resurs]: <https://lex.uz/docs/-4930291> (murojaat qilingan sana: 01.07.2025).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktabrdagi PQ-4881-sonli Qarori "Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". – [Elektron resurs]: <https://lex.uz/uz/docs/-5991928> (murojaat qilingan sana: 01.07.2025).
3. Yazdiy Sh. A. Zafarnoma / fors tilidan tarjima. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – 127 b.
4. Yusupova Z. Amir Temur davridagi bog'sozlik an'analari va ularning tarixiy ahamiyati // Tarix va madaniyat. – 2020. – №2(4). – B. 115.
5. Korea Tourism Organization. – [Elektron resurs]: <https://english.visitkorea.or.kr> (murojaat qilingan sana: 01.07.2025).
6. Korea Rural Economic Institute. – [Elektron resurs]: <https://www.krei.re.kr> (murojaat qilingan sana: 01.07.2025).
7. Fedulin A. A., Dzhaparova A. V., Fedulina A. S. Digital Economy in Tourism Industry // Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2022. – Article No. 28.
8. Yu M., Ma B., Liu D., Zhang A. Is the Digital Economy Empowering High-Quality Tourism Development? A Theoretical and Empirical Research from China // PLOS ONE. – 2024. – Vol. 19(5). – e0303087. – DOI: <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0303087>
9. Murodov M. M. The Importance of the Development of the Digital Economy in the Field of Tourism in Uzbekistan // Kelajak Bunyodkori. – 2021. – Vol. 2(2). – B. 28–30. – [Elektron resurs]: <https://www.kelajakbunyodkori.uz/index.php/builders/article/view/18> (murojaat qilingan sana: 01.07.2025).
10. Kim H., Lee J. Smart Tourism in South Korea: Case Study of Jeonju Hanok Village // Asia Pacific Journal of Tourism. – 2021. – Vol. 18(2). – B. 78–91.
11. Chen L., Wang Y. E-commerce and Local Business Growth: A Case Study of Huangshan Traditional Tourism // Journal of Economic Studies. – 2021. – Vol. 29(4). – B. 100–115.
12. Park S., Choi M. AI-Based Tourism Services in South Korea: Enhancing the Tourist Experience in Bukchon Hanok Village // International Journal of Smart Tourism. – 2023. – Vol. 6(1). – B. 90–105.
13. Lee D., Jang K. Blockchain and AI in Gyeongju Tourism Development: Investment and Growth // Journal of Digital Economics. – 2022. – Vol. 7(3). – B. 112–128.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
